



## 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida jami 2654,2 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 118,5 % ni tashkil qildi.



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 535,9 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 695,0 % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 1864,1 mlrd. so‘mni yoki jami qurilish ishlarining 70,2 % ini tashkil etib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 98,2 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 254,2 mlrd. so‘mni tashkil etib o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 95,4 % ni tashkil qildi.


**Ma‘lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta‘mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.





## Iqtisodiy faoliyati turlari bo'yicha qurilish ishlari

(ishlar hajmi, mlrd. so'm)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 70,5 % ni tashkil etadi.



Fuqarolik obyektlarini qurilishi bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 24,0 % ni tashkil etadi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 5,5 % to'g'ri keldi.





## Qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

(jamiga nisbatan, % da)

### 2020- yil yanvar-noyabr

6,6



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

24,7



Fuqarolik obyektlarini  
qurilishi

68,7



Bino va inshootlarni  
qurilishi

### 2021- yil yanvar-noyabr

5,5



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

24,0



Fuqarolik obyektlarini  
qurilishi

70,5



Bino va inshootlarni  
qurilishi

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.



## Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari tarkibi


(mlrd. so'm)

	Jami qurilish ishlari	shu jumladan, qurilish ishlari tarkibi bo'yicha		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik korxonalar va mikrofirmalar	norasmiy sektor
<b>Sirdaryo viloyati :</b>	<b>2654,2</b>	<b>535,9</b>	<b>1864,1</b>	<b>254,2</b>
<b>Guliston sh.</b>	<b>760,5</b>	<b>15,5</b>	<b>688,9</b>	<b>56,1</b>
<b>Shirin sh.</b>	<b>181,6</b>	<b>88,0</b>	<b>90,0</b>	<b>3,6</b>
<b>Yangiyer sh.</b>	<b>156,7</b>	<b>0,6</b>	<b>142,9</b>	<b>13,2</b>
<i>tumanlar :</i>				
<b>Boyovut</b>	<b>136,1</b>	<b>4,6</b>	<b>109,8</b>	<b>21,7</b>
<b>Guliston</b>	<b>279,8</b>	<b>61,3</b>	<b>197,6</b>	<b>20,9</b>
<b>Mirzaobod</b>	<b>345,4</b>	<b>82,9</b>	<b>234,5</b>	<b>28,0</b>
<b>Oqoltin</b>	<b>115,0</b>	<b>0,3</b>	<b>103,0</b>	<b>11,7</b>
<b>Sardoba</b>	<b>50,7</b>	<b>0,2</b>	<b>36,2</b>	<b>14,3</b>
<b>Sayxunobod</b>	<b>73,0</b>	<b>0,6</b>	<b>58,3</b>	<b>14,1</b>
<b>Sirdaryo</b>	<b>364,8</b>	<b>195,4</b>	<b>112,5</b>	<b>56,9</b>
<b>Xovos</b>	<b>190,6</b>	<b>86,5</b>	<b>90,4</b>	<b>13,7</b>



## Hududlar kesimida qurilish ishlari o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)




Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahriga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlarining o'sish sur'ati 93,1 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Sirdaryo tumanida 187,4 % ni tashkil qildi.

Qurilish ishlarining hududlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Shirin shahrida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 219,2 % ni tashkil qildi.



## Qurilish ishlari bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)



Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1864,1 mlrd. so'm yoki jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 70,2 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 98,2 % ni tashkil qildi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 535,9 mlrd. so'm yoki jami qurilish ishlaridagi ulushi 20,2 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 695,0 % ni tashkil qildi.

Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish ishlari hajmi 254,2 mlrd. so'm yoki jami qurilish ishlarining 9,6 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 95,4 % ni tashkil qildi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)



Davlat mulki



Nodavlat mulk

Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 203,2 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 7,7 % ni tashkil qildi va oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 0,7 % punktga koʻpaydi.




Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 2451,0 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 92,3 % ni tashkil qildi va oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 0,7 % punktga kamaydi.





## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)



- Guliston sh.
- Shirin sh.
- Yangiyer sh.
- Boyovut
- Guliston
- Mirzaobod
- Oqoltin
- Sardoba
- Sayxunobod
- Sirdaryo
- Xovos

Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilgan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Guliston shahriga 28,7 % ga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sirdaryo tumaniga 13,7 %, Mirzaobod tumaniga 13,0 %, Guliston tumaniga 10,5 % va Xovos tumaniga 7,2 % dan to'g'ri keldi.



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi.

Aloqa telefoni: (67) 236-86-27

